

Isajon Sulton

# ABU RAYHON BERUNIY

*tarixiy-biografik roman*



**Toshkent – 2022**

## BESHINCHI QISMI DAVOMI

### XOJA MINOVANDIY HIKOYATI

Xoja Minovandiy Ray olimlarining mashhuri va bilimdoni edi. Pokdomonlikda shunday ediki, yo'lda yurganida yerga diqqat bilan razm solar va juda sekin qadam bosar edi. Odamlar buning sababini so'rashganida, "Noxos biron qurt-qumursqani o'ldirib, joniga zavol bo'lmay", deb javob qilardi.

Faxruddavla uning ta'rifini eshitgach, "At-tarixfil-bashar" degan kitob yozishini va Odam Ato zamo- nasidan to shu kunga qadar barcha tarixlarni jamlab, so'nggi boblariga buvayhiylar tarixini qo'shishini buyurdi. Uning kichik bir hujrada yashashini, dunyo ishlaridan yiroq bir tarzda hayot kechirishini bilgach esa, ko'r kam bir bog' hadya qilib, katta maosh tayinladi, uch qul va yunonistonlik ikki nasoro joriyani hadya qildi.

A'yonlar shohning bunday inoyatidan hayratga tushdilar, lekin barcha bir ovozdan Xoja Minovandiy bunday marhamatga loyiq ekanini aytar edi. Men: "Qaniydi, Xoja Minovandiy darhol u qullarni va joriyalarni ozod qilsaydi yoki sotib yuborsaydi, chunki ular Minovandiy ado etadigan yuksak vazifani bajarishga to'sqinlik qiladilar", deb aytdim.

Xoja Minovandiy sulton Faxruddavlarning buyrug'ini bajarishga qattiq kirishib ketdi va qisqa muddat ichida risolaning dastlabki boblarini yozib bitirdi. Shundan so'ng uzlatga chekinib, ancha vaqt hech kim uni ko'rmadi.

Nihoyat, bir kuni uni soqoli qirqilgan va xino bilan qizilga bo'yalgan, beliga zunnor taqib, qo'lting'iga daf qisib olgan holda ko'rdilar va bu haqda sultonga xabar berdilar.

Sultonning jahli chiqdi va hojiblaridan biriga Minovandiyni saroya keltirishini buyurdi.

Shunday qildilar. Shoh olimning parishon qiyofasiga qarab, nima bo'lganini so'radi. Xoja Minovandiy shunda:



– Ey saodatli shoh, ruxsat bersangiz, boshimga tushgan ibratlvi voqeani so'zlab bersam, – dedi.

Shoh rozi bo'lgach, Minovandiy shunday hikoya qildi:

– Siz tuhfa qilgan bog'da, siz hadya qilgan qullar va joriyalar xizmatimda, o'zim esa shoyon g'ururlanib, shoh marhamatiga-ku erishding, endi shohona hayot nimaliginiham ko'r, der edim. Bir kuni xizmatkorlarimga va qullarimga istirohat istagida ekanimni aytdim. Ular hamma narsa tayyor bo'lganini aytib, meni uyga taklif qilishganida, ichkariga kirib, lol bo'lib qoldim. Xonalar orasta qilib bezatilgan, kumush va oltin tabaqlarda turli tansiq taomlar muntazir, atrofga ipak yostiqlar qo'yilgan, bog' eshigi esa, chivin ham uchib kirolmaydigan qilib tambalangan edi. Siz tuhfa qilgan nasoro joriya qo'liga udni olib shunday qo'shiqlar aytdiki, Xudo haqqi, yuragim to'xtab qolayozdi. Aqlim boshimdan uchib, bu kayf-safo dengiziga qanday g'arq bo'lib ketganimni bilmay qoldim. Nafsim dedi: olamda mana shunday shohona orom va lazzatlar bor, qisqa umringni qandaydir bilimlarga sarflab nima qilasan? Kishilar bitiklaringning qadriga yetmaydilar, qaytanga, ortingdan malomat ham qiladilar. Bu zamona bilim va maorif zamonasi emas, yuzlarni so'ldirib, vujud quvvatini sug'urib oladigan ajal elchisi yetib kelguncha o'ynab-kulib olsang-chi! Men undan, ya'ni shayton yo'rig'idagi nafsimdan "Sultonning buyrug'i nima bo'ladi?" deb so'radim. Nafsim aytdiki, "Olimlar sulton aytgan sifat va darajadagi assarni o'nlab yillar yozishadi. Sen bir-ikki yil sulton marhamatidan foydalanib ol, hatto, ulardan foydalanmasang, buni eshitib, sultonning jahli chiqishi mumkin". Shundan so'ng "Istirohat qilsam qilibman-da, keyin o'z yumushimga band bo'larman", deb uning aytganiga yurdim. Bir kuni qarasam, siz ko'rib turgan holatga kelibman. Mening boshimga tushgan ish mana shu. Bundan chiqadigan xulosa esa shundayki, ey xoja, sen bor-yo'g'i oddiy bir mudarrissan, taqdiringga shu ish yozilgan va rizqing ham shunga yarasha. Shohlarga yarashadigan hashamlarga havas qilib, o'shanday huzur-halovatni orzu



qilganing nimasi? Senga kim qo'yibdi sultonlarga yarashadigan ishlarni, axir, bunday hashamatga sazovor bo'lish uchun ular amalga oshirgan ishlar bilan o'z ishlaringni taqqoslab ko'rmaysanmi? Bu ish qanday ro'y bergen bo'lsa, shunday aytdim, endi jazolasangiz ham, afv qilsangiz ham ixtiyor o'zingizda!

– Faxruddavlа uning so'zlariga hayron qoldi va oliyjanoblik bilan: "U holda, qanday kun kechirishni istasang, shunday yasha, biz senga bergen narsalarimizni va so'zimizni qaytarib olmaymiz", dedi. A'yonlariga esa, "Tangri taolo insof bermaguncha uni o'z holiga qo'yinglar", dedi. Xoja Minovandiy yig'lab-siqtab, joriyalarini va qullarini damashqlik bir savdogarga sotib yubordi, tarki dunyo qilib, o'ta kamtarona hayot kechira boshladi. Biroq, har qancha urinsa ham, avvalgi darajalariga erisha olmadı, oradan bir necha yil o'tgach esa, o'lim farishtasi uning jonini oldi.

– Abu Rayhon kulib yubordi:

– To'g'ri aytasan, ey Abu Sahl! Men nimani o'ylagan bo'lsam, o'shani o'ylabsan! – dedi.

Shundan so'ng, rabiul-avval oyining birinchi chorshanbasida, Rumdan kelayotgan bir karvon bilan Gurganjga jo'nab ketdi.

### KO'CHI BALUJ HIKOYASI

Mening laqabim Mormulak<sup>1</sup>, Ko'chi Baluj raisiman. Ishimiz qaroqchilik qilib karvonlarni talash va odam ovlashdan iborat.

Bizning hikoyamiz uzun va iztirobli. Bizni bu ko'yga solganlar kirmoshohlar sulolasidir.

Bir qancha yillar avval Lut dashtida o'z shahrimiz bo'lib, nomi Otashkarda edi. Unda qubbasiga sigir shoxiqadalgan ibodatxonamiz bor edi. Boshqa qavmlar kabi chorva boqib, bayram qo'shiqlarimizni kuylab yashardik. Ibodatxonamizda

<sup>1</sup> Forscha: kaltakesak

quyoshga sig'inar, to'ylarimizda olov yoqib, kelin-kuyovni aylantirar, ma'lum kunlarda chalpak pishirib, kichkina shamchalar yoqib, ulug'larimizning ruhlariga bag'ishlar edik.

Bir kuni qattiq shamol esib, olovimizni o'chirib ketdi. Uni qaytadan yoqdir. Lekin bu hodisa yana takrorlandi. Ketma-ket uch kun shunday bo'lgach, kohinimiz aytdiki, «Bu o'z-o'zidan bo'layotgan ish emas. Eng yaxshi qo'y-sigirlaringizni keltiring, ibodat tepaligiga qo'ying. Havoda bulut to'planmoqda. Shoyad ko'kdan o't tushib, kuydirib ketsa».

Bizlar shunday qildik. Bir qancha sara mol-qo'ynibog'lab, otashkada tepasiga tashlab keldik.

Ko'kda bulut to'planib, momaqaldiroq gumburladi. Yashinlar cho'lning har yeriga tushdi, ammo qurbanliklarimizni kuydirmadi.

Shundan so'ng ustimizga Kirmonshoh lashkari bostirib keldi. Ular kohinlarimizni o'ldirishdi, xalqtumtaraqay bo'lib qochdi. Shahrimizni vayron qilib, quduqlarimizni ko'mib tashlashdi.

Bir qancha kishimiz sahroda tashnalik va ochlikdan halok bo'ldi.

Kirmonshoh lashkari ketgach, sahro bo'ylab izg'ib, qolgan-qutgan qavmdoshlarimni to'pladim. Yetti yuz oila, ikki ming kishi qolgan ekanmiz. Barchamiz dasht bag'ridagi bir daraga to'plandik. Odamlar bir-birlari bilan quchoqlashib, yig'lar edilar.

Qolgan-qutgan chorva ellik boshdan oshmasdi. Shunda qavm yigitlariga ov qilishlarini, zinhor chorvaga ko'z tikmasliklarini buyurdim. Oldinda dashtning qattiq sovuqli qishi turardi. Bizlar yer qazib, yerto'lalarda jon saqladik. Qishda ov ovlab, qush-quyon yeb tirikchilikqildik.

Bahor kelganida hamma yoq yashilga burkandi. Qo'y-sigirlarimiz tug'di. Farzandlarimizning og'zi oqlikkayetdi.



Shunda men dedimki, modomiki, Kirmonshoh kelib bizlarni talabdi, biz nega talonchilik qilmas ekanmiz?

Yigitlarimiz bunga rozi bo'lib, meni raislikka ko'tarishdi.

Dasht yo'liga poyloqchilar qo'ydik. Ilk talagan karvonimizdan olgan o'ljalalarimizdan xursandligimizni ko'rsangiz edi. Toy-toy matolar, behisob oltin-kumush qo'lga kiritdik.

Shu tariqa, nomimiz har tarafa Ko'chi Baluj bo'lib yoyildi.

Dasht o'z uyimiz bo'lgani uchun, uning har qarichini besh qo'lday bilardik. Qachon shamol esishi, qachon qum bo'roni kelishi yoki barxan surilishini bexato aytardik. Qo'nim yerimizni muttasil o'zgartirardik, navkarlar bizni izlab kelsa, dasht ichkarisiga qochardik. Quduqlar ichigao'limtik tashlab, ustini shox-shabba va qum bilan ko'mibqo'yardik, navkar suv topolmay, ortiga qaytib ketardi.

Damg'on va Malikshahr orasida boshqa to'dalar paydo bo'lgach, ular bilan urushib, dasht hukmronligini to'la qo'lga oldik. Shundan so'ng kichik karvonlar kattalariga birlashadigan va qurolli soqchilar yollaydigan bo'lishdi. Ba'zan shunday katta karvonlar o'tardiki, qo'riqchi soni yuzdan oshiq bo'lardi. Jurjon hukmdori Qobus ibn Vushmgir qaroqchilarni ushlangan joyida o'ldirishga buyruq bergenidan so'ng, barchamiz yana dasht ichkarisiga qochib ketdik.

Taqdirimiz shunday edi: talonchilik va bosqinchilikdan bir qancha mablag' topib, u mablag' tugaguncha qilingan aysh-ishratlar barobarida umr o'tib borardi. "Mahsharda qanday javob qilasan?" deydiganlarga esa, javobim shu: jahannamga ketishim muqarrar bo'lgach, savob ilinjida yugurmoq ne darkor? Shu to's-to'polonlar orasida yo qilich, yo uchqur o'q zarbidanyer tishlasam, ajabmas.

Kohinimiz mening so'zlarimni tinglab, dedi:



- Sen yov hamlasidan o'lim topmaysan. Sening o'limingga olma sabab bo'ladi.
- Isfin olmasimi yoki Nishopurnikimi? – deb so'radim, uni mazax qilib.
- Isfahon olmasi, – deb javob qildi u.

Bir kuni Simnondagi kishilarimiz bizga Jurjondan katta karvon yo'lga chiqqanini aytishdi. Qo'riqchilari ko'p emas, ellikka yaqin ekan. Bu karvon uchun oz, har holda, karvonboshining aqchasi yetmagan yoxud xasislik qilgandir bo'lsa, ehtimol. Yoxud dashtda birnecha oydan buyon bosqin yuz bermagani uchun xavotirisusaygan bo'lishi mumkin.

Men o'z yigitlarim bilan ortma-ort ular izidan boraverdim.

Qumlikda hujum qilish aqllining ishi emas. Chunki ot tuyog'i qumga botib, chop a olmaydi. Shu sababli, karvonni bir necha kun ta'qib etib, Bayt rabotidan so'ng keladigan g'umay va yulg'unlar o'sgan taqirlikda, yulduzlar charaqlagan kechada qo'qqisdan bosdik.

Qiy-chuv, to's-to'polon ko'tarildi. Men yigitlarimga iloji boricha ko'proq shovqin chiqarishlarini buyurgan edim. Toki kishilar bizni ko'pchilik deb o'ylab, vahimaga tushishsin. Shunday ham bo'ldi: qo'riqchilar qurollarini tashlab, darhol taslim bo'lishdi.

Qo'rqib ketgan yo'lovchilar yuklarining ortigayashirinib olishgan edi. Aravalor va ulovlar orasidan o'tib borayotib, baland bo'yli bir yigitni ko'rdim. U yo'l-yo'l matoga o'ralgan yukini gavdasi bilan himoya qilib turardi. Qaroqchilarimdan biri qilichi bilan bir urgan edi, mato yirtildi-da, taxlam kitoblar ko'rinish qoldi.

– Oltin-kumush bo'lsa, tez chiqar, yo'qsa, boshing qumga yumalaydi!

– Ehtiyyot bo'l, kitoblarga zarar yetmasin! – dedi u yigit.





Uning tap tortmasligi zavqimni keltirdi. Boshqalar ham bu savol-so'roqqa qiziqib, yaqinlashib kelishdi.

– Kimsan, nega kitob tashib yuribsan? – deb so'radim undan.

– Olimman. Kitoblarimdan boshqa hech vaqoim yo'q.

– Hozir seni o'ldirib yuborsam, so'raguvchi biron kishi bo'lmaydi. Ilming ham yordam berolmaydi! Xo'sh,nimalarni o'rganasan o'zi?

– Quyoshning botish-chiqishiga qarab, manzillarni aniqlashdan to Yer kurrasining o'lchamigacha.

Xudo haqi, anchadan buyon bunaqa miriqib kulmagan edim.

– Xo'sh, Yer kurrasini qanday qilib o'lchaysan? Butun olamni qadamlab aylanib chiqasanmi? Ha, ana, o'lchading ham deylik, undan kishilarga nima naf?

U yigit boshiga qanday falokat kelganini bilmaganday, o'zini erkin tutar, savollarimga xotirjam javob berar edi.

–Sen dashtda qanday qilib mo'ljal olasan? –deb so'radi u.

– Yulduzlarga qarab, albatta.

– Kunduzi-chi?

– Quyoshta qarab.

– Havo bulut bo'lsa-chi?

– Unda butalarga qarab.

– Bularning bari o'zgaruvchandir, – dedi u. – Falak muttasil aylanib turadi, shu sababli yulduzlar o'z o'rniда muqim bo'lmay, falakda aylana harakat qiladi. Men falak aylanishi va yer yuzi xaritasini tuzaman. Ma'lum faslda qaysi yulduz qaerda bo'lishini belgilayman. U xaritaga qarab, istagan mahaling o'z yo'lingni topa olasan.

– Rais, uning qo'ynida Shamsulmaoliyning paysasi bor ekan, – dedi qaroqchilardan biri.





Hukmdorlar karvonlarga beradigan paysani karvonboshilar haq evaziga sotib olishadi. Unday paysalarni biz nazar-pisand qilmaymiz. Biroq birgina odamga paysa berilishi uning sulton nazdida o'ta qimmatli kishi ekanini bildiradi. Bunday kishiniqul qilib sotib bo'lmaydi, qolaversa, birov olmaydi ham. Shamsulmaoliy esa... Bu shafqatsiz hukmdor nominieshitgan har qanday kishi zir titraydi. U bir vaqlar bir kishi uchun minglab askarini dashtga yuborib, aybdorni topmaguncha, kim duch kelsa, qilichdan o'tkazgan podshoh ekani barchaga ma'lum.

– Sulton senga nima uchun paysa berdi?

– Ayrim kitoblarni yozish uchun Qobus ibn Vushmgir huzuridan Gurganjga chorlandim.

– Hukmdorlar bilan nima ishing bor? Ular ham biz qilgan ishni qilishadi. Farqimiz shuki, ular qonun joriy qilib talashadi, biz esa unday hiylalarga bormay, to'g'ridan-to'g'ri talayveramiz.

U javob bermadi.

– Menimcha, bu ilmingdan sira naf yo'q. Hech kim uning qadriga yetmaydi. Sen kitob yozar emishsan, ming sahifali bir kitobdan nusxa ko'chirish uchun qancha yil kerak bo'ladi? Foydali kitob yozish uchun qanchalar aql lozim? Men dashtu tuzning qaroqchisiman, ammo agar hukmdor bo'lGANIMDA, senday kishilarni boshimga ko'targan bo'lar edim!

Shunday deb, yigitlarimga buyruq berdim:

– Buning kitoblarini qaytarib bering. Uni o'taketgan nodon desam, telba ham ekan. Yonida bir chaqa yo'qligining sababini endi bildingizmi? Tegmang unga, ketabersin! Telbalarni Alloh suyadi, deydilar, shoyad shu devona sabab bo'lib, bir qancha gunohlarimiz yuvilsa!

So'ng yana yigitga, ya'ni Abu Rayhonga:

– Men talagan karvonda hech kim omon qolmas edi. Sotishga arziydiganlarini ot va tuyalari bilan



qo'shib olib ketib, yaramaydiganlarini qoldirardim.Ular yo  
bir mo'jiza tufayli omon qolar yoki dashtda hayvonlarga yem  
bo'lib ketishardi. Sen tufayli karvonning ulovlariga  
tegmayman, faqat yuklarni olaman, xolos. Boraver, yo'ling  
oydin bo'lsin!

Shunday deb otimga mindim-u, oh-vohlar, kishi- larning  
nolalari ostida, oy chiqqan shu tunda, talangan karvonni  
qoldirib, dasht aro ot choptirib o'z xilvatimizga qarab yo'l  
soldim.

U bilan qayta ko'rishish nasib qilmadi. Biroq,talonchilik  
hayotimda davom etar ekanman, oradan ancha yillar o'tib,  
Hamadon yo'lida uni taniydigan ikki kishiga duch keldim.  
Birining ismi Abu Sahl<sup>1</sup>, ikkinchisi Abu Ali<sup>2</sup> edi. Ikkalovi ham  
juda holdan toygan, o'lar holatda edilar. Shunday bo'ldiki,  
Abu Sahl o'sha qumlikda jon berdi. Abu Rayhonning haqqi-  
hurmati, joni omon qolgan Abu Aliga Jurjonga yetib olishiga  
ko'maklashdim. Hayotimda qilgan eng xayrli ishim balki shu  
bo'ldi, chunki oradan bir qancha yil o'tib, dashtda sulton  
Mahmud G'aznaviy tufayli o'lim topdim. Kohin aytgani kabi,  
bizning o'limimizga Isfahon olmasi sabab bo'ldi...



---

<sup>1</sup> Абӯ Саҳл Масиҳий.

<sup>2</sup> Абӯ Али ибн Сино.